


IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar 2023 yilning 1 yanvar holatiga 22 474 ta kichik biznes subyektlarini (dexqon va fermer xo‘jaliklarisiz) tashkil etish imkonini berdi. (2022 yilning shu davriga nisbatan 15,5 foizga ko‘pdir).



Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi
2022 yilning yanvar-dekabr holatiga (jami nisbatan foizda)
(dexqon va fermer xo‘jaliklarisiz)



Eng ko‘p kichik biznes subyektlari savdo (jami tashkil etilgan subyektlarning 31,8 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘ida (25,5 %), sanoat sohasida (19,2 %), qurilishda (4,7 %) hamda (18,8 %) boshqa sohalar tashkil etadi.

2022 yilning yanvar-dekabr oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

– investitsiyalar hajmi 7 906,8 mlrd. so‘mlik (umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 73,5 %) o‘zlashtirildi va 2021 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o‘shish sur‘ati 115,4 foizni tashkil qildi;

– qurilish ishlari hajmi 3 228,0 mlrd. so‘mlik (qurilish ishlari umumiy hajmidagi ulushi 94,1 %) va 2021 yilning yanvar-dekabriga nisbatan o‘shish sur‘ati 106,8 foizni tashkil qildi;

– sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 5 446,8 mlrd. soʻmni (jami sanoat ishlab chiqarishining ulushi 48,9 %) tashkil qildi;

– xizmatlar hajmi 4 763,5 mlrd. soʻmlik koʻrsatilib (jami xizmatlar hajmidagi ulushi 59,7 %) 2021 yilning yanvar-dekabriga nisbatan oʻsish surʻati 110,9 foizni tashkil qildi;

– chakana tovar aylanmasi 7 958,4 mlrd. soʻmni (jami chakana tovar aylanmasining 110,5 %) 2021 yilning yanvar-dekabriga nisbatan oʻsish surʻati 70,1 foizni tashkil qildi;


– tovarlar eksport hajmi 98,3 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 49,3 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, tovarlar import hajmi 427,4 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 87,5 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi;

– avtomobil transportida 33 828,6 ming tonna yuk tashilib (jami avtomobil transporti yuk tashishdagi ulushi 96,4 %) 2021 yilning yanvar-dekabriga nisbatan oʻsish surʻati 106,5 foizni tashkil qildi;

– avtomobil transportida 91 455,0 ming yoʻlovchi tashilib (umumiy yoʻlovchi tashishdagi ulushi 94,2 %) 2021 yilning yanvar-dekabriga nisbatan oʻsish surʻati 101,2 foizni tashkil qildi;

2022 yilning yanvar-dekabrida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YAHMdagi ulushi – 78,4 foizni, sanoatda – 48,9 foizni, qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligida – 99,3 foizni, qurilishda – 73,5 foizni, eksportda – 49,3 foizni tashkil qilgan.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi






Viloyat bo'yicha kichik tadbirkorlikda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
(umumiy hajmiga nisbatan mlrd. so'mda)

2022 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik biznesda sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



Jizzax viloyati bo'yicha eng ko'proq sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahar (1 240,0 mlrd. so'm), G'allaorol (2 069,3 mlrd. so'm), Paxtakor (381,1 mlrd. so'm) tumanlar hissasiga to'g'ri keladi.

2022 yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati



Jizzax viloyati bo'yicha ko'p xizmatlar hajmi Jizzax shahrida (1 183,8 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (892,9 mlrd. so'm), G'allaorol (523,8 mlrd. so'm) va Zomin (476,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2022 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy ko'rsatkichlarda kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, % da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Qishloq xo'jaligi
Jizzax viloyati	48,9	94,1	59,7	98,3
<i>shahar:</i>				
Jizzax	32,4	92,6	35,6	97,9
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	71,3	100,0	75,9	99,3
Baxmal	100,0	100,0	71,7	99,3
G'allaorol	97,4	91,1	79,0	99,7
Sharof Rashidov	59,8	100,0	84,4	95,7
Do'stlik	8,0	100,0	72,0	99,4
Zomin	44,1	82,3	73,0	96,2
Zarbdor	24,9	95,8	74,3	99,9
Zafarobod	4,8	95,7	75,2	98,1
Mirzacho'l	100,0	85,0	66,3	99,1
Paxtakor	57,7	100,0	76,6	95,2
Forish	91,3	100,0	79,0	99,6
Yangiobod	100,0	100,0	74,9	99,7

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatda kichik tadbirkorlikning iqtisodiy ko'rsatkichlari sohalar bo'yicha tahlil qilinganida:

- sanoat tarmog'ida kichik tadbirkorlik Do'stlik (8,0 %), Zafarobod (4,8 %), Zarbdor (24,9 %) tumanlarida nisbatan kam, Baxmal, Mirzacho'l, Yangiobod (100,0 %) tumanlarida yuqori ulushni tashkil etadi.

- qurilish tarmog'ida kichik tadbirkorlik ulushi viloyatga nisbatan Jizzax shahrida (92,6 %), Zomin (82,3 %), Mirzacho'l (85,0 %), G'allaorol (91,1 %), Zafarobod (95,7 %), Zarbdor (95,8 %) tumanlarida kam foizni qolgan tumanlarda esa yuqori o'ringa ega.

- xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik ulushi Jizzax shahrida (35,6 %), Mirzacho'l tumani (66,3 %) qolgan hududlarga nisbatan kam bo'lishiga qaramasdan, hajmi jihatidan qolgan hududlardan yuqori o'ringa ega.

- qishloq xo'jaligi tarmog'ida viloyat miqyosida yaratiladigan qo'shimcha qiymatning barchasi kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshiriladi.